LINGVISTIK GERMENEVTIKANING NAZARIY ASOSLARI

G‘aniyeva Tohira
Andijon davlat chet tillari instituti
Gid hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi bir yo‘nalishlaridan bo‘lgan lingvistik germenevtikaning nazariy asoslari, uning rivojlanish bosqichlari hamda uning o‘rganish obyekti masalalari ustida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Lingvistika, germenevtika, matn, semiotika, falsafa, tafakkur, sharh.

Globallashuv jarayonlarining rivojlanishi- millatlararo muloqot aloqalarining misli ko‘rilmagan darajada o‘sishiga olib keldi. Xalqaro hamkorlikning global miqyosda jadallashishi va turli ijtimoiy sohalardagi xalqaro aloqalar sohasining sezilarli darajada kengayishi filologiya faoliyatining turli nazariyalari va amaliyotini rivojlantirish uchun kuchli turtki bo‘ldi. Bunday muhim ijtimoiy muammoni anglashning kontseptual tasiri lingvistik germenevtikaning shakllanishiga asos bo‘ldi.

Birinchi navbatda lingvistik germenevtika sohasining rivojlanishi uchun asos bo‘lgan germenevtika terminiga izoh berishimiz zarur. Germenevtika - matnlarni, belgilarni tushunish va izohlash jarayonini o‘rganadigan fandir. Ushbu fan orqali turli asarlarni o‘qish jarayonida to‘liq tushunish va manbaalardagi iboralarning ma’nosini anglab yetishga, shuningdek, ularning tarixiy kontekstini tushunishga yordam beradi. Germenevtikaning ildizlari qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi va o‘rta asrlarda va yangi davrda rivojlangan. Germenevtik tadqiqotlar dastlab diniy matnlarni o‘rganish va sharhlash asosida vujudga kelgan. Germenevtikaning ayrim elementlari Qadimgi Yunon adabiyoti, Rim notiqlari Islom madaniyati, G‘arbiy Yevropada sxolastlar nazariyalarida mavjud bo‘lgan. O‘rta asrlarda germenevtika teologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu davrda uning vazifasi diniy matnlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, ularni xatolardan xalos etish va dastlabki mazmunini tiklashdan iborat bo‘lgan. Shu bois germenevtikadagi tushunish, tushuntirish, sharhlash, tahlil qilish, talqin etish kabilar mutlaqo yangilik emas. Shuningdek, germenevtika semiotika, lingvistika va matnshunoslik kabi sohalarda ham muhim o‘rin tutib, falsafa bilan birga, filologiyaga ham teshishli ekanligini ta’kidlash joiz.

Germenevtika XIX asr o‘rtalarida F.Shleyermaxer, V.Diltey, M.Xaydegger, K.Bart kabilar ijodida metodologik rivojlantirildi [1].

Keyinchalik F.de.Sossyur tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda germenevtikaning obyekti bo‘lgan tushunish va tushuntirish bevosita til vositasi orqali amalga oshirilishi hamda ushbu jarayonda strukturali (tuzilmali) lingvistikaning o‘rini tahlil qiladi [2].

Bugungi kunda ushbu bilimlarga tayangan holda o‘zbek tilshunoslaridan B.Karim, I.Rahimov, A.O‘tamurodov, N.Shermuhammedova, Q.Nazarovlar tomonidan germenevtikaning badiiy ijod masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borganlar [3].

Germenevtikaning asosiy vazifasi matn yoki belgining mazmuni va xususiyatlarini hisobga olgan holda uning haqiqiy ma’nosini ochishdir. Bu orqali mualliflar o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini matnlar orqali qanday ifodalashini va biz ularni qanday qilib to‘g‘ri talqin qilishimizga yordam beradi. Germenevtika, shuningdek, turli madaniyatlar va tillar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonini o‘rganadi. Bu turli millat vakillarini yaxshiroq tushunishlari va tushunmovchiliklarni bartaraf etishlari uchun turli madaniy kodlar va normalarni to‘g‘ri anglashga yordam beradi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, germenevtika falsafa, semiotika, matn lingvistikasi, kognitiv lingvistika, lingvistika kabi fanlar bilan uzviy bog‘langandir. Buning natijasida dunyo tilshunosligida lingvistik germenevtika fani paydo bo‘ldi. Tilshunoslik lingvistik germenevtika

orqali tafakkur, til, nutqning irsiy, tipologik o‘zaro ta’sirining rang-barangligini matn aloqasi doirasida o‘rganadi. Tilshunoslik lingvistik voqelikdan, shu jumladan lingvistik germenevtika orqali olingan aniq ma’lumotlardan foydalanadi va til falsafasi bilan munosabatlarning asosini yaratadi. Binobarin, lingvistik germenevtika til falsafasi bilan tilshunoslik o‘rtasida vositachi bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatni ta’minlaydi. Bu fanlarning ko‘plab nazariy tamoyillarini o‘zlashtirgan lingvistik germenevtika o‘zining ilmiy o‘ziga xosligini saqlab qoldi.

Til falsafasi, tilshunoslik va falsafiy germenevtika o‘rtasidagi farqlar, avvalambor, qo‘llaniladigan metodologiya miqyosida ham, ushbu fanlarning predmeti sohasida ham namoyon bo‘ladi. Til falsafasi fikrlashning o‘zaro ta‘siri jarayonining haddan tashqari abstraktsiyasi uchun metodologiyani ishlab chiqadi, tilni, nutqni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida til tahlilini yagona mumkin bo‘lgan narsa deb hisoblaydi. U asosiy e’tiborni tilning genezisi, faoliyati va ma’nosini o‘rganishga qaratdi hamda madaniyat va bilishdagi ma’no ifodalarini ko‘rib chiqadi. Tilshunoslik sohasida metodologik tadqiqot qilish bilan shug‘ullangan umumiy ilmiy darajadagi muammolar, shuningdek, fikrlash, til va nutq munosabati matn ichida nisbatan mustaqil elementlar sifatida ko'rib chiqadi. O‘z navbatida, germenevtika metodologiyasi matnli aloqani tushunish va izohlashning umumiy masalalariga qaratilgan bo‘ladi.

Til falsafasi, tilshunoslik va falsafiy germenevtikaning o‘zaro ta’siri lingvistik germenevtikaning vujudga kelishi uchun zarur metodologik, gnoseologik, lingvistik, aksiologik shart-sharoitlarni yaratdi. Til falsafasi tilshunoslikka lingvistik germenevtika orqali ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, mantiqiy pozitivizm va lingvistik falsafa bilan ifodalangan til falsafasi tilshunoslik nazariyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Lingvistik germenevtikaning o‘rganish obyekti matn bilan va matn orqali aloqani anglatuvchi belgi-ramz tizimi sifatida matnli aloqa hisoblanadi. X.Gadamer bu xususida shunday fikr yuritadi: “Barcha ona tilida so‘zlashuvchilar... so‘z yoki gapda emas, faqat matnda gapiradi” [4,427]. Shuni ta’kidlash kerakki, hayotning istalgan sohasidagi odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa doimiy matnli muloqot orqali bo‘ladi. Matnli muloqotdan tashqarida avlodlarning ijtimoiy xotirasida madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolish mumkin bo‘lmaydi [5,154-156].

Ko‘rinib turibdiki, tilni haqiqatni ifodalash va matn muloqotida ma’noni to‘g‘ri yetkazish usuli sifatida tushunadigan germenevtika predmeti lingvistik germenevtika predmeti bilan to‘g‘ri kelmaydi. Ma’lumki, "germenevtika" (germenevtike) atamasi yunon tilidan matnlarni sharhlash san’ati, ma’noni tushunish va tushuntirish nazariyasi sifatida tarjima qilingan. Tadqiqotchi A. M. Kamchatniyning fikriga ko‘ra, "matn – ko‘p qirrali bo‘lib, falsafiy, tarixiy, teologik yoki estetik jihatdan talqin qilinishi mumkin, ammo matn tildan tashqarida mavjud emasligi sababli, u holda lingvistik komponentlarni tahlil qilish zarur bo‘ladi. Lingvistik germenevtikaning maqsadi ushbu komponentni ajratib olish va uni mustaqil ravishda tekshirishdir, boshqacha aytganda, lingvistik germenevtikani talqin qilingan matnni o‘rganishning alohida jihati emas, balki lingvistik jihatdir". [6, 3].

Bu talqin shubhasizdir, chunki lingvistik germenevtika haqiqatdan ham "lingvistik komponentning izolyatsiyasi" bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tushunish va sharhlash orqali yozma va og‘zaki ijtimoiy o‘zaro ta’sirda ishlaydigan talqin qilingan matnning lingvistik jihatini o‘rganish bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, lingvistik germenevtika - bu aniq nutq faoliyatining matnli aloqasi ma’nosini o‘rganishda mazmunli o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan yangi, rivojlanayotgan ilmiy fan hisoblanadi. Ushbu maqolamiz orqali germenevtika va lingvistik germenevtikaning paydo bo‘lishi va ularning tadqiqot obyektlarining nazariy asoslarini ko‘rib chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. F.Shleyermaxer. Dialektika. – M.: ACT, 1992. – 208c.

2. F.Sossyur. “Записки по общей лингвистике. – M.: Progress, 1990. – 211c.
3. Baxodir Karim. Abdulla Qodiriy. – Toshkent:Fan, 2006. -B.7.
4. Gadamer X. Истина и метод: основы философской герменевтики. М.: Прогресс, 1988. 704 с.
5. Hek P. From Linguistic to Hermeneutics: A Functional and Cognitive Approach to Job 12-14. The Netherlands: BRILL/ Studia Semetica Neerlandica, 2010. 444 p
6. Kamchatnov A. M. Теоретические основы лингвистической герменевтики и опыт ее приложения к изучению языка славяно-русских переводов Библии: автореф. дисс. … д. филол. н. М.: МПГУ, 1996. 23 с.

WORDLY KNOWLEDGE